

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdusalil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILY IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxiidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI .....	370
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
<b>Bekmurodov Navruz Ergashevich</b>	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
<b>Sattorov Shohruh</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
<b>Загидуллина Карина Рафаиловна</b>	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
<b>Viktoriya Kan</b>	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
<b>Nizomov Maxmud Minovarovich</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
<b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
<b>Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
<b>Alimov Bobirjon</b>	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
<b>Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva</b>	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
<b>Iskandarova Munisa Hasan qizi</b>	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
<b>Azimov Bobir Fattohevich</b>	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
<b>Safarmurodova Marjona To'raqulovna</b>	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
<b>Adizov Bobir Baxtiyorovich</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
<b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
<b>Kunnazarova Orazxan</b>	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
<b>Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi</b>	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
<b>Ibodullayev Dilshod Ibragimovich</b>	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
<b>Alimova Oydin Baxtiyorovna</b>	



STUDYING THE FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE APPROACHES TO REGIONAL EXPORT EFFICIENCY .....	486
<b>Qurbanov Feruz Baxramovich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARI .....	491
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
XORIJIY DAVLATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB QUVVATLASHNING ILG‘OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO‘LLASH XUSUSIYATLARI .....	496
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Atabayeva Mexribon Atabayevna</b>	



# XORIJIY DAVLATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB QUVVATLASHNING ILG‘OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO‘LLASH XUSUSIYATLARI

## Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich

Urganch RANCH texnologiya universiteti  
iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, PhD  
ORCID: 0009-0004-2451-1531

## Atabayeva Mexribon Atabayevna

Urganch RANCH texnologiya universiteti  
Magistratura mutaxassisligi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)ni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning AQSh, Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Rossiya va Buyuk Britaniya davlatlarida ilg‘or tajribalari tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston Respublikasi sharoitida qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari va amaliy imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qo‘llab-quvvatlash, xorijiy ilg‘or tajribalar, kreditlash mexanizmlari, innovatsiya va raqamlashtirish.

**Abstract.** This article analyzes advanced practices of state support for small business and private entrepreneurship (SBPE) in the United States, China, Japan, Singapore, South Korea, Russia, and the United Kingdom, and substantiates the priority directions and practical opportunities for their application in the conditions of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** small business and private entrepreneurship, support, advanced foreign practices, lending mechanisms, innovation and digitalization.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы передовые практики государственной поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства (МБЧП) в США, Китае, Японии, Сингапуре, Южной Корее, России и Великобритании, а также обоснованы приоритетные направления и практические возможности их применения в условиях Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** малый бизнес и частное предпринимательство, поддержка, передовой зарубежный опыт, механизмы кредитования, инновации и цифровизация.

## KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy transformatsiya sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning ikkinchi darajali bo‘g‘ini emas, balki uning tarkibiy diversifikatsiyasi, innovatsion yangilanishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashning strategik instituti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar ma‘lumotlari kichik va o‘rta biznes subyektlarining iqtisodiy o‘shish hamda bandlikni ta‘minlashdagi salmoqli o‘rnini tasdiqlaydi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur toifadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklangani muammo sifatida ko‘riladi. Xususan, 119 mamlakat bo‘yicha hisob-kitoblar ushbu sohadagi moliyaviy bo‘shliq hajmi 5,7 trillion AQSh dollariga yetayotganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlarining qayd etishicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid zamonaviy davlat siyosati an‘anaviy imtiyozlar berish amaliyotidan kengroq mazmun kasb etishi kerak. Ya‘ni bunday siyosat korxonalarining barqaror rivojlanishi, raqamli texnologiyalarni joriy etishi, ekologik yo‘naltirilgan o‘shishni ta‘minlashi hamda yuqori o‘shish trayektoriyasiga ega subyektlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan kompleks institutsional tizimga aylanishi lozim.

Maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, xorijiy mamlakatlarda KBXTni rivojlantirishga xizmat qilayotgan mexanizmlar ko‘p hollarda fragmentar o‘rganiladi: ayrim tadqiqotlar moliyalashtirishga, boshqalari



startaplarga, yana boshqalari eksportga urg'u beradi. Natijada ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda yaxlit institutsional model yetishmaydi. Holbuki, OECD tahlillari turli mamlakatlarda KBXT siyosati maqsadlari va vositalarida o'xshashliklar mavjudligini, farq esa asosan boshqaruv modeli va koordinatsiya sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Demak, ilg'or tajribalarni ko'chirib olish emas, balki ularni mahalliy institutsional muhitga mos ravishda rekombinatsiya qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

KBXTni davlat tomonidan tartibga solish, qo'llab-quvvatlashning ilmiy, nazariy asoslari hamda usullari xorijiy olimlardan Ivanov A.K., Volkova T.V., Shestakov M.Yu., Nurmuxametov A.V., Nikonov V.A., Gusev A.K., Fedoseyev D.V., Kudratov Z.G., Svinsitskaya Ye.V., Droznyak O.V., Iskujina N.Yu., Zubova O.G., Krasovskiy N.A., Makarova Yu.L., Frolova O.A., Shamsutdinova L.R., Bikmetova Z.M., Gevorgyan L.S., Bogdanova N.V., Pogadayev A.V. va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha muhokama qilinib, keng yoritilgan [1-16].


Shuningdek, Respublikamizda KBXTni davlat tomonidan tartibga solish, qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishning asosiy tendensiyalari, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarining xorijiy tajribalari iqtisodchi olimlardan Kurpayanidi K.I., Abduraxmonova M.M., Jo'rayev H.Z., Jo'rayev H.S., Murodova N.Q., Alimardonov I.M., G'afurov U.V., Rajapov X.B., Xursanaliyev B., Amonov M.O., Toshaliyeva S.T., Kurbonov J.P. va boshqalarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan [17-27].

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Yu.L. Makarova o'z tadqiqotida kichik biznesga davlat vositalari orqali ta'sir ko'rsatishning asosiy usullarini ko'rib chiqqan va globallashuv jarayonlarini hisobga olgan holda Rossiyada va xorijda kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlarini asoslagan.

Muallif fikricha, rivojlangan mamlakatlarning kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha davlat siyosatini shakllantirishdagi tajribasining xulosasi kichik biznes sektori va hukumat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning bilvosita kanallariga asoslangan markazlashtirilmagan yondashuvning roli ortib borayotgani haqidagi xulosaga olib kelgan. Shunday qilib, kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlarda amalga oshiriladi: tartibga solish (qonunchilik bazasini yanada shaffof va amalda samarali qo'llash), moliyaviy va boshqa sohalarda. Qo'llab-quvvatlash tizimini samarali rivojlantirish uchun esa texnik, moliyaviy-kredit, axborot va tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari to'plamini joriy etish zarurligi asoslangan.

Pogadayev Anton Vladimirovich olib borgan tadqiqotida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning xorijiy modellari institutsional va amaliy jihatdan qiyosiy tahlil qilingan. Muallif AQSh, Germaniya, Xitoy va boshqa rivojlangan iqtisodiyotlarda qo'llanilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarini o'rganib, davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlash, venchur moliyalashtirish, kraudfanding va fintex platformalarining kichik va o'rta biznesni rivojidadagi o'rnini asoslab bergan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali moliyalashtirish mexanizmi davlat ishtirokining oqilona darajasi, xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyati va muqobil moliya manbalarining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu asosda Rossiya uchun eng maqbul yo'nalishlar sifatida kafolat mexanizmlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlashni kuchaytirish, kraudfanding va fintex infratuzilmasini rivojlantirish taklif etilgan. Asosiy g'oya shundan iboratki, xalqaro tajribani samarali qo'llash uni mahalliy iqtisodiy va institutsional muhitga moslashtirish bilan bog'liq.

Quyidagi 1-rasmda AQShda SBA tizimi orqali kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning institutsional modeli keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. AQShda SBA tizimi orqali kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning institutsional modeli[16]

Mahalliy iqtisodchi olimlardan K.I. Kurpayanidi o'z ilmiy izlanishida AQSh hukumatining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimining o'ziga xos jihatlari, uning institutsional komponentlari, zamonaviy institutlar va kichik va o'rta biznesni (KO'B) rag'batlantirish bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish vositalari ko'rib chiqilgan. AQSh Kichik biznes ma'muriyati faoliyatini monitoring qilish, Bosh inspektor idorasi va kichik biznesni himoya qilish idorasining roli va strategik maqsadlariga alohida e'tibor qaratgan. Kichik eksportga yo'naltirilgan biznesni rag'batlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan (1-jadval).


1-jadval. AQShda kichik va o'rta biznesni (KO'B) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi rivojlanishining asosiy indikatorlari [17]

Indikator	Miqdoriy baho	Tavsif
SBA budjeti, mln dollar	703,2	KO'Bni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi faoliyatini moliyalashtirish
Davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari	36	Texnik ko'mak, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, subkontraktatsiya bo'yicha yordam, innovatsion dasturlar, boshqa yo'nalishlar
SBA kredit portfeli, mlrd dollar	88,0	KO'B subyektlariga vakolatli banklar orqali imtiyozli kreditlar taqdim etish
Kafolat fondlari, mlrd dollar	62,2	KO'B subyektlari uchun kredit summasining 90 foizigacha davlat kafolatini berish
SBA hududiy bo'linmalari	115	Barcha shtatlar va yirik shaharlarda faoliyat yuritadi
Vakolatli kredit-moliya tashkilotlari	7 380	KO'B subyektlarini imtiyozli shartlarda kreditlash
Subkontraktatsiya darajasi, %	23	Federal buyurtmalarni kichik korxonalar o'rtasida joylashtirish
Tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari	1 100	"Yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish; o'qitish va maslahat berish; texnik yordam hamda axborot taqdim etish
Konsultatsiya markazlari	389	KO'B uchun maslahat xizmatlarini ko'rsatish
Klasterlar, biznes-inkubatorlar va texnoparklar	152 330	Barcha hududlar, yirik shaharlar, sanoat va ilmiy markazlarda joylashgan
Ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik markazlari	118	97 ta ayollar biznes markazi, 21 ta nogironlar, faxriylar va etnik guruhlar uchun markaz
Axborot tarmoqlari	8	Texnologiyalar, moliya, innovatsiyalar, eksport va kontraktlar bo'yicha onlayn axborot ko'magi
Eksportni qo'llab-quvvatlash markazlari	20	SBAning 115 ta hududiy bo'limlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi

1-jadvalda AQShda kichik va o'rta biznesni (KO'B) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi rivojlanishining asosiy indikatorlari keltirilgan.

S.T. Toshaliyeva ilmiy tadqiqot ishida asosiy e'tiborni tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi nazariy va amaliy asoslarni tahlil qilishga qaratgan. Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiy statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalanib, unda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari tizimlashtirilgan, uning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan, kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligini ilmiy asoslangan holda baholagan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

2-rasmda S.T. Toshaliyeva tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimi keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish tizimi [26]

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, institutsional tahlil, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida AQSh, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Buyuk Britaniyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyoti tanlab olindi. Ushbu davlatlarni tanlashda ularda shakllangan qo'llab-quvvatlash institutlarining barqarorligi, yuqori amaliy samaradorligi, innovatsiya va raqamlashtirish bilan bog'liqligi hamda rivojlanishning turli modellarini ifodalash xususiyati asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Tahlil jarayonida mazkur davlatlarda qo'llanilayotgan quyidagi yo'nalishlar o'zaro qiyoslanib o'rganildi: kreditlash va davlat kafolati mexanizmlari, grant va subsidiya vositalari, biznesni axborot-konsalting jihatdan qo'llab-quvvatlash, innovatsiya va raqamlashtirishni rag'batlantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi institutsional infratuzilmaning tuzilishi. Shu bilan birga, xorijiy amaliyotdagi mazkur instrumentlarning O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari milliy iqtisodiyotning institutsional xususiyatlari, moliyaviy bozor chuqurligi, tadbirkorlik muhiti va davlat boshqaruvi amaliyoti nuqtayi nazaridan baholandi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlar tajribasi kichik biznes va shaxsiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali modellarini ta'minlash vositasi emas, balki o'zaro bog'langan moddiy, institutsional va zahiraviy mexanizmlar tizimiga tayanchini ta'minlaydi. AQShda bu tizim kreditlar, davlat xaridlariga kirish, innovatsion grantlar va konsalting xizmatlariga kirishni o'z ichiga oladi. Janubiy Koreyada asosiy qo'llab-quvvatlash korxonalarini keyinchalik rivojlanish bosqichiga olib chiqishga qaratilgan bo'lib, "scale-up" va "jump-up" yondashuvlari o'ziga xos model hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari [28]

Ko'rsatkich / Mamlakat	Mamlakat YAIMidagi ulushi, %	Umumiy bandlikdagi ulushi, %	Subyektlar soni	Korxonalar umumiy sonidagi ulushi, %
AQSh	43,5	45,9	34 752 434	99,9
Xitoy	60,0+	80,0+	—	—
Yaponiya	56,0*	69,7	3 365 000	99,7
Singapur	—	71,0	—	99,0
Koreya	65,0*	81,0	—	99,0
Rossiya	21,7**	39,0	6 590 000	—
Britaniya	52,0***	60,0	5 490 740	99,8

2-jadvalda muallif tomonidan ishlab chiqilgan xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalari ifodalangan.

AQSh modeli bozor mexanizmlarini saqlagan holda davlat kafolati, innovatsion grant va davlat xaridini birlashtirgan "venchur + kontrakt + kafolat" modeli sifatida xarakterlanadi.

Xitoy modeli soliq imtiyozlari + kredit kafolati + raqamli modernizatsiya + innovatsion platformalar kombinatsiyasiga tayanuvchi davlat muvofiqlashtiruvchi modelidir.

Yaponiya modeli davlat moliyasi va xususiy bank tizimini qarama-qarshi emas, balki komplementar tarzda bog'laydigan, institutsional jihatdan juda barqaror tizimdir.

Singapur modeli bir darcha raqamli platforma + mahsuldorlik granti + xalqarolashuv granti + moliyaviy kafolat uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Koreya modeli sanoat siyosatiga bog'langan KO'B siyosati bo'lib, unda raqamli ishlab chiqarish, eksport va o'sish bosqichlariga mos instrumentlar markaziy o'rin tutadi (3-jadval).

3-jadval. Xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalari[29]

Davlat	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Soliq va fiskal engilliklar	Innovatsiya va raqamlashtirish	Eksport va tashqi bozorga chiqish	Institutsional-infratuzilmaviy mexanizm
AQSh	SBA orqali 7(a) kredit kafolatlari, 504 dasturi bo'yicha uzoq muddatli asosiy vositalarni moliyalashtirish, Microloan dasturi orqali mikrokreditlar	To'g'ridan-to'g'ri umumiy soliq imtiyozlaridan ko'ra moliyalashtirish va kontrakt vositalari ustuvor	SBIR/STTR orqali erta bosqich texnologik R&D grantlari va kommersiyalashtirishni rag'batlantirish	Federal hukumat xaridlarida kichik biznes uchun maxsus dasturlar va kamida 23% ulushga erishish maqsadi	SBA maslahat, o'quv va kontrakt bo'yicha yordamni yagona milliy tizimda taqdim etadi
Xitoy	Mikro, kichik va o'rta korxonalar uchun foiz subsidiyalari, maxsus kafolat sxemalari, kreditlashni kengaytirish choralari	Kichik va kam foyda oluvchi korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2027 yilgacha soliq va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar saqlangan	SME digital empowerment tashabbuslari, innovatsion platformalar, IM himoyasini kuchaytirish, "tax-bank interaction" orqali moliyaga chiqishni engillashtirish	Davlat siyosatlarida MSPni texnologik yangilanish va tashqi raqobatbardoshlikka tayyorlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan	Davlat Kengashi, moliya va soliq organlari hamda sanoat siyosati institutlari o'zaro muvofiqlashgan tarzda ishlaydi
Yaponiya	Japan Finance Corporation orqali startaplar va mikrobiznes uchun kreditlar, ko'p hollarda garovsiz va kafilsiz moliyalashtirish; uzoq muddatli, qat'iy stavkali kreditlar	Soliqdan ko'ra kreditni to'ldiruvchi davlat moliyasi va xavfni taqsimlash ustuvor	Yangi bizneslar, startaplar, biznes vorisligi va qayta tiklanish uchun maqsadli kredit dasturlari	Tashqi bozorga chiqishga uringan mikrobizneslar ham JFC dasturlari orqali qo'llab-quvvatlanadi	CGC + JFC kredit to'ldirish tizimi orqali kafolat va sug'urta mexanizmi; 2025 yil holatiga ko'ra KOBlarning katta qismi ushbu tizimdan foydalanadi
Singapur	Enterprise Financing Scheme (EFS), jumladan SME Working Capital Loan orqali aylanma mablag' va o'sishni moliyalashtirish	Fiskal engilliklar mavjud bo'lsa-da, amalda grant va qo'shma moliyalashtirish vositalari ustuvor	PSG orqali raqamli echimlar va uskunalarni joriy etish; EDG orqali transformatsiya, innovatsiya va unumdorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash	MRA granti orqali yangi xorijiy bozorlarga chiqish xarajatlarining katta qismi qoplanadi	Business Grants Portal orqali grantlarga "bir darcha" tamoyilida raqamli murojaat tizimi
Koreya	KOSME va MSS orqali siyosiy moliyalashtirish, o'sish bosqichlariga mos fondlar va moliyaviy dasturlar	Fiskal choralardan tashqari, sanoatni modernizatsiya qiluvchi maqsadli qo'llab-quvvatlash ustuvor	Smart Factory dasturlari, AI-markazlar, texnologiya va ishlab chiqarish modernizatsiyasi uchun subsidiyalar va vaucherlar	Export Voucher Program va global bozorga chiqish dasturlari; eksportning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi paket yondashuv	MSS, KOSME va startap ekotizimi institutlari orqali "o'sish narvoni" tamoyilida qo'llab-quvvatlash



Rossiya	Imtiyozli investision kreditlar, davlat mikrozaaymlari, "zontichnie" kafolatlar, mustaqil kafolatlar, mintaqaviy kafolat tashkilotlari	Soliq choralaridan tashqari, moliyaga chiqishni engillashtiruvchi davlat kafolati va subsidiyalangan moliyalashtirish ustuvor	MSP.RF raqamli platformasi orqali servislar, bilimlar va davlat yordamiga onlayn chiqish	Eksportni qo'llab-quvvatlash markazlari orqali hujjatlashtirish, hamkor topish, ko'rgazma va biznes-missiyalar	"Moy biznes" markazlari 88 hududda "bir darcha" shaklida xizmat ko'rsatadi; Korporasiya MSP bozorga chiqish va huquqiy himoyaga ham ko'maklashadi
Britaniya	British Business Bank orqali Growth Guarantee Scheme (70% davlat kafolati), Start Up Loans, ENABLE dasturlari	2026 yildan tadbirkorlik va investisiyani rag'batlantiruvchi ayrim soliq engilliklari kengaytirilgan	Innovate UK orqali biznesga yo'naltirilgan innovatsiya grantlari va ekspert qo'llab-quvvatlash; Help to Grow orqali boshqaruv ko'nikmalarini oshirish	Yangi xarid siyosatida SMEs uchun davlat kontraktlariga chiqishni engillashtirish choralarini kuchaytirilgan	British Business Bank, Innovate UK va biznesni qo'llab-quvvatlash xizmatlari o'zaro bog'langan

Rossiya modeli kafolat + mikromoliya + hududiy infratuzilma + raqamli platforma + davlat xaridi kombinatsiyasiga asoslangan tarmoqlashgan modeldir.

Britaniya modeli davlat kafolatli qarz + start moliyasi + innovatsiya agentligi + menejmentni rivojlantirish + procurement-friendly policy uyg'unligi bilan tavsiflanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi moliyaviy, institutsional, innovatsion va axborot-konsalting instrumentlarining o'zaro uyg'unligi asosida shakllanishini ko'rsatdi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatining maqsadi faqat subyektlar sonini oshirish emas, balki ularning barqarorligi, raqobatbardoshligi, texnologik salohiyati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kuchaytirishdan iborat ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchi, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirish uchun davlat kafolatlari va riskni taqsimlash mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish zarur.

Ikkinchi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatida oddiy imtiyozlardan ko'ra, raqamlashtirish, innovatsiya va mahsuldorlikni oshirishga qaratilgan maqsadli grant va vaucher instrumentlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchi, biznes uchun kredit, subsidiya, konsalting, o'qitish va eksport xizmatlarini yagona raqamli platforma orqali taqdim etish qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshiradi.

To'rtinchi, davlat siyosati barcha tadbirkorlik subyektlariga bir xil yondashuvga emas, balki ularning rivojlanish bosqichi, tarmoq xususiyati va bozor salohiyatiga moslashtirilgan differensial qo'llab-quvvatlash modeliga tayanishi lozim.

Shu tariqa, xorijiy tajribaning ilg'or jihatlarini O'zbekiston sharoitiga institutsional jihatdan moslashtirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash, uning barqaror o'sishini ta'minlash va milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иванов Алексей Кириллович Зарубежный опыт государственной поддержки малого предпринимательства // Экономика и управление. 2012. №3 (77). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-gosudarstvennoy-podderzhki-malogo-predprinimatelstva>
2. Шестаков М. Ю. Государственная поддержка малых предприятий в зарубежных странах // Государственное и муниципальное управление в XXI веке: теория, методология, практика. 2013. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-podderzhka-malyh-predpriyatij-v-zarubezhnyh-stranah>
3. Костыгов Сергей Олегович Система государственной поддержки малого бизнеса за рубежом // Вестник ВУиТ. 2014. №4 (81). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-gosudarstvennoy-podderzhki-malogo-biznesa-za-rubezhom>
4. Никонов В.А. Государственная поддержка предпринимательства в развитых странах и адаптация опыта в России // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС. – 2017. – №1. – С. 244–249.
5. Гусев А. К. Опыт государственного регулирования и поддержки малого бизнеса в промышленно развитых странах // Вестник НИБ. 2018. №34. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-i-podderzhki-malogo-biznesa-v-promyshlennno-razvityh-stranah>

6. Федосеев Д.В. Зарубежный опыт регулирования и поддержки малого предпринимательства / Д.В. Федосеев // Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №6–4(38). – С. 133–136.
7. Кудратов З.Г. Опыт поддержки малого и среднего бизнеса в некоторых развитых странах / З.Г. Кудратов, Б.Б. Тошбоев, Г.И. Бердиев // Молодой ученый. – 2019. – №1 (81). – С. 242-245.
8. Дрозняк, О. В. Особенности государственного регулирования развития малого и среднего предпринимательства за рубежом / О. В. Дрозняк, Т. М. Чернякова // Современная мировая экономика: вызовы и реальность : Материалы III Международной научно-практической конференции, Донецк, 01 декабря 2020 года. – Донецк: Донецкий национальный технический университет, 2020. – С. 14-17. – EDN VMUPIS.
9. Искужина Н. Ю. Развитие малого бизнеса за рубежом: сборник трудов конференции. / Н. Ю. Искужина, К. С. Петрова, Л. Г. Садыкова // Право, экономика и управление: теория и практика : материалы Всеросс. науч. конф. с международным участием (Чебоксары, 11 апр. 2020 г.) / редкол.: Г. Н. Петров [и др.]. – 2020. – Чебоксары: ИД «Среда», 2020. – С. 122-124. – ISBN 978-5-907313-23-1.
10. Зубова О.Г. Зарубежный опыт государственной поддержки малого и среднего предпринимательства / О.Г. Зубова - Вестник УРАО. 2020. №3. – С.43.
11. Красовский Н. А. Институты поддержки предпринимательства в россии // Вестник ГУУ. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/instituty-podderzhki-predprinimatelstva-v-rossii>
12. Макарова, Ю. Л. Формы и методы государственного регулирования и поддержки малого предпринимательства в России и за рубежом / Ю. Л. Макарова, В. В. Матвеев, Н. Е. Данилова // Естественно-гуманитарные исследования. – 2022. – № 41(3). – С. 205-212. – EDN FWDQYF.
13. Фролова О. А. Анализ зарубежного опыта государственного регулирования малого и среднего бизнеса: сборник трудов конференции. / О. А. Фролова, Ю. А. Юхлина // Актуальные вопросы права, экономики и управления : IV Всероссийская научно-практическая конференция студентов, аспирантов и молодых ученых с международным участием (Ульяновск, 29 апр. 2022 г.) / редкол.: Т. А. Макарова [и др.]. – 2022. – Чебоксары: ИД «Среда», 2022. – С. 175-178. – ISBN 978-5-907561-32-8.
14. Шамсутдинова Л. Р., Бикметова З. М. Зарубежный опыт государственного регулирования и поддержки субъектов малого и среднего предпринимательства: возможность адаптации к российским реалиям // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2022. №1-3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-i-podderzhki-subektov-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-vozmozhnost-adaptatsii>
15. Геворгян Л.С., Гоненко Д.В. Международный опыт государственной поддержки малого и среднего предпринимательства // Экономика и управление: проблемы, решения. — 2023. — № 5. — Т. 5. — С. 32–44
16. Погадаев, А. В. Зарубежный опыт финансирования малого бизнеса: возможности адаптации в российских условиях / А. В. Погадаев // Вестник евразийской науки. — 2025. — Т. 17. — № 5. — URL: <https://esj.today/PDF/59FAVN525.pdf>. DOI: 10.15862/59FAVN525.
17. Курпаяниди К. И. Институциональные основы системы государственной поддержки малого предпринимательства: опыт США // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2012. №41. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/institutsionalnye-osnovy-sistemy-gosudarstvennoy-podderzhki-malogo-predprinimatelstva-opyt-ssha>
18. Абдурахмонова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектлари фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш. Дис. ... иқт. фан. номз. - Ф., 2012.
19. Жўраев Ҳ.З., Жўраев Ҳ.С. Кичик бизнес ривожланишини қўллаб-қувватлашни хорижий мамлакатлар тажрибаси. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. – №4, 2015. – С. 42–5
20. Мурадова Н.Қ. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан қўллаб-қувватлашни назарий асосларини такомиллаштириш. Иқт.фан.доктори дисс.автореферати. Т.2016.
21. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлаш борасидаги хориж тажрибасидан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш имкониятлари. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2017 йил
22. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –Т.: 2017. – 309 b.
23. Rajarov, Kh. B. Chinese experience in the development of small business and private entrepreneurship in the fishing field of Uzbekistan / Kh. B. Rajarov // Экономика и предпринимательство. – 2022. – No. 3(140). – P. 851-855. – DOI 10.34925/EIP.2022.140.03.159. – EDN NIBTIM.
24. Xursanaliyev, B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida xorijiy tajriba // QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. — 2024. — Т. 10, № 10. — В. 21–24. — DOI: 10.54613/ku.v10i10.899.
25. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Dissertatsiya (i.f.f.d.). – Т., 2024. – 142 b.
26. Toshaliyeva, S. T., Eshqulova, D. A. Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — Т. 1, № 2. — В. 10–17. — DOI: 10.5281/zenodo.13166834.
27. Kurbonov, J. P. Kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi // "Alfraganus" xalqaro ilmiy jurnali. — 2025. — Jild 3, № 3. — Elektron manba. — URL: [journals.afu.uz/index.php/ijja/uz/article/view/93/56](https://journals.afu.uz/index.php/ijja/uz/article/view/93/56)

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)